

PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov,
I.Sh. Alqarov, N.O'.Usmanov

PEDAGOGIKA

Qayta ikkinchi nashri

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan. Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste'dod» jamg'armasi tomonidan ananaviy o'tkazilib kelinayotgan «Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi – 2012» Respublika tanlovida birinchi o'rinni egallab, I darajali diplom bilan taqdirlangan.

«NOSHIR»
TOSHKENT
2016

Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshqalar. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «Noshir», 2016. 456 b.


I. Hasanboyev J. va boshqalar.

BBK 74.03я73

Mazkur darslik pedagogika nazariyasi kursining maqsad va vazifalari, fanning umumiy asoslari, pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari, tarbiya va ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, turlari, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosdan foydalanish yo'llari, shakllari va vositalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, ta'lim oluvchilar bilimlarini tashkil etish, korreksion pedagogika haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Darslik pedagogika oliy o'quv yurtlarining mutaxassis fakultetlari talabalari, pedagogika kollejlarning o'quvchilari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrlar va aspirantlar, shuningdek, pedagog-mutaxassislarga mo'ljallab tayyorlandi.

Ushbu darslik «Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari»ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish mavzusiga oid fundamental hamda «Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy, pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy sohalar bo'yicha bosqichma-bosqich malaka oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy tadqiqot doirasida ishlab chiqildi.



p.f.d., prof. N.Shodiyev
p.f.d. Q.Olimov

© «Noshir», 2016-y.

Bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan bilimli kadrlar kerak.

Islom Karimov

KIRISH

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa **pedagogika** fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki, insonning ma'rifatli bo'lishi va ma'naviy komillikka erishishi **pedagogika** fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlar va yuqori samaradorlik ko'proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog'liq bo'lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo'ladi. Shunday asoslarda ta'lim-tarbiya berish bo'lajak mutaxassislarini yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo'lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samarlarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta'lim-tarbiya jarayonini ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta'limi andozalari talablarlariga mos

keluvchi «Davlat ta'lim standartlari»da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma'noda ta'lim-tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovatsion jarayonni o'zida mujassamlashtiradi.

«Barkamol shaxs tarbiyasi» degan tushuncha tasodifan paydo bo'lgan emas. Bu inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar asosida shakllana boshladi va hozirgacha jamiyat taraqqiyotiga mos holda takomillashib kelmoqda. Ular, asosan, qissalar, pandnomalar, qadriyatnomalar, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida va boshqa shu kabi manbalarda asoslab berilib, avlod-dan avlodga o'tkazildi va keyinchalik mustaqil fan sifatida shakllanib o'z mavqeyini mustahkamladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim – fan – amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hech kimga sir emas.

Shu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy pedagogika fanining mazmun-mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan pedagogika fani o'qituvchilik kasbiga tayyorlash tizimida alohida ahamiyat kasb etadi va ixtisoslikka yo'naltiruvchi fan hisoblanadi. Mazkur o'quv fani o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odat, marosim va an'analari hamda xalq pedagogikasi aqidalari-